

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI AHOLISINING DEMOGRAFIK
HOLATINI STATISTIK TAHLILI**

Chintemirova Diyora Shuxrat qizi

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 2-bosqich talabasi

E-mail:shuxratishqulov3@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada O'zbekiston aholisining demografik o'zgarishlari statistik ma'lumotlar asosida tahlil qilinadi. Tug'ilish, o'lim, aholi zichligi va migratsiya jarayonlari demografik tuzilmaning asosiy ko'rsatkichlari hisoblanadi va ular mamlakatning iqtisodiy rivojlanishi, mehnat bozori hamda ijtimoiy siyosatiga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Tadqiqot davomida oxirgi yillardagi statistik ma'lumotlar asosida tug'ilish darajasining o'zgarish tendensiyalari, o'lim ko'rsatkichlarining sabablari chuqur tahlil qilinadi. Maqolada demografik o'zgarishlarning iqtisodiyot va ijtimoiy hayotga ta'siri baholanadi hamda kelajak uchun prognozlar ishlab chiqiladi.

Kalit so'zlar: demografiya, tug'ilish, o'lim, aholi zichligi, aholi soni, iqtisodiy o'sish.

Аннотация. В данной статье анализируюся демографические изменения населения Узбекистана на основе статистических данных. Рождаемость, смертность, плотность населения и миграционные процессы являются основными показателями демографической структуры и оказывают непосредственное влияние на экономическое развитие страны, рынок труда и социальную политику. В ходе исследования на основе статистических данных последних лет проводится глубокий анализ тенденций изменения уровня рождаемости, причин смертности. В статье

оцениваеци влияние демографических изменений на экономику и социальную жизнь, а также разрабатываюци прогнозы на будущее.

Ключевые слова: демография, рождаемость, смертность, численность населения, экономический рост.

Abstract. This article analyzes the demographic changes in Uzbekistan's population based on statistical data. Birth rate, mortality, population density, and migration processes are the key indicators of demographic structure and have a direct impact on the country's economic development, labor market, and social policy. The study provides an in-depth analysis of birth rate trends and causes of mortality based on recent statistical data. The article evaluates the impact of demographic changes on the economy and social life and develops forecasts for the future.

Key words: demography, birth rate, death rate, population, economic growth.

KIRISH

Har qanday davlatning rivojlanish yo‘nalishini belgilovchi asosiy omillardan biri uning demografik tarkibidir. Malumki, aholi tarkibiy jihatdan turlicha va ular vaqt o‘tishi bilan doimiy o‘zgarib turadi. Shu sababli, aholining rivojlanish qonunyatlarini, uning tarkibiy o‘zgarishini aniq tarixiy sharoitlarni inobatga olgan holda o‘rganish lozim. Bizga esa bu yo‘lda demografiya yordamga keladi. Demografiya- bu ijtimoiy-iqtisodiy statistikaning eng qadimgi va asosiy tarkibiy qismi bo‘lib, u aholining turmush darajasi va demografik jarayonlar bilan bog‘liq o‘zgarishlarni hisobga olish, tahlil qilish hamda ushbu jarayonlarni o‘rganish usullarini ishlab chiqish va amaliyotga tatbiq etish bilan shug‘ullanadigan fan. Demografik tuzilmaning asosiy ko‘rsatkichlari tug‘ilish darajasi va o‘lim ko‘rsatkichlari bo‘lib, ular aholi sonining tabiiy o‘sishini belgilaydi. Bundan

tashqari, migratsiya jarayonlari mamlakat ichidagi hududiy farqlarni shakillantirib, ishchi kuchining taqsimlanishiga sezilarli ta'sir qiladi.

Hozirgi kunda, mamlakatimiz demografiyasini o'rganishga yanada qiziqish ortib bormoqda. Bunga sabablardan biri, O'zbekiston aholisi yil sayin ko'payib, mamlakat iqtisodiy va ijtimoiy muhitiga ta'sir ko'rsatmoqda. Shuningdek, aholi iqtisodiy o'zgarishlariga bevosita ta'sir ko'rsatadi. Birinchidan aholi ishlab chiqarish jarayoning to'g'ridan-to'g'ri ishtirokchisi, ikkinchidan ushbu jarayon natijasining iste'molchisi ham hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining joriy yildagi "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag'allikni qisqartirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-12-sون qarori^[1] mamlakatimizning demografik ko'rsatkichlari bilan chambarchas bog'liqdir. Chunki, ushbu qaror demografik ko'rsatkichlarni yaxshilashga qaratilgan. Yangi ish o'rinnari yaratish va kambag'allikni qisqartirish orqali tug'ilish darajasini oshirish, o'lim ko'rsatkichlarini kamaytirish va aholi zichligini muvozanatlashga erishish mumkin. Shuningdek, migratsiya jarayonlarini tartibga solish orqali aholi sonining barqaror o'sishi ta'minlanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Demografik salohiyat bu bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil bo'lishi mumkin. Shu jihatdan, O'zbekiston katta potensial va keng imkoniyatlarga ega. Shu bilan birga, demografik jarayonlarning kelib chiqishi va aholi bilan bog'liq statistik ko'rsatkichlar, jumladan uning tarkibi, soni, hududiy taqsimoti, tug'ilish, o'lim, migratsiya va boshqa omillar tadqiqotchilar tomonidan o'rganib kelinmoqda.

Qodirova K.F. o'z tadqiqotida O'zbekiston Respublikasining demografik tarixi, tarixiy voqealar, ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar kesishuvini aks ettiruvchi ko'p qirrali jarayon sifatida o'rgangan [2]. Maqolada demografik tendensiyalar,

migratsiya shakllari va turli omillarning mamlakat demografik ko'rsatgichiga ta'siri haqida tushuncha berilgan. Vaholanki, demografiya avlodlarning tabiiy almashinuviga, ya'ni tug'ilish va o'lim asosida aholining takror barpo bo'lish jarayoniga alohida e'tibor qaratadi.

Tojiyeva Z.N.- "O'zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari" nomli doktorlik dissertatsiyasida mamlakatimizdagi demografik jarayonlarning hududiy xususiyatlari chuqr tahlil qilib, ushbu izlanishda tug'ilish, o'lim va migratsiya ko'rsatkichlarining hududlar bo'yicha farqlarini o'rgangan [3].

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishlarini amalga oshirishda ilmiy tadqiqot metodologiyasida keng qo'llaniladigan usullardan foydalanildi. Ilmiy tahlil jarayonida kuzatish, umumlashtirish, guruhlash, taqqoslash, tahlil qilishda esa sintez va tahlil usullaridan keng foydalanildi.


TAHLIL VA NATIJALAR

Demografik salohiyat bu bir mamlakatning iqtisodiy taraqqiyotini yangi bosqichga olib chiqishda muhim omil bo'lishi mumkin. Shu jihatdan, O'zbekiston katta potensial va keng imkoniyatlarga ega. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligining rasmiy sayti tomonidan berilgan ma'lumotlar asosida aholining so'nggi yillardagi demografik statistikasi ma'lumotlariga nazar tashlaydigan bo'lsak, so'ngi yillarda mamlakatimiz aholisi o'sish sur'ati sezilarli darajada oshdi. O'zbekiston Respublikasi doimiy aholi soni 2025- yil 1-yanvar holatiga ko'ra 37 543,2 ming kishini tashkil etib, 2024-yilda 743,4 ming kishiga yoki 2,0 foizga o'sgan. Jumladan, erkaklar soni 18 904,5 ming kishini (jami aholi sonidagi ulushi 50,4%), ayollar soni 18 638,7 ming kishini (49,6%) va shahar

aholisi soni 19 135,8 ming kishini, qishloq aholisi soni 18 407,4 ming kishini tashkil etdi.



1-rasm. Doimiy aholi sonining jinsi, shahar va qishloq joylari bo'yicha taqsimlanishi (2025 yil 1 yanvar holatiga, ming kishi)




2-rasm. Hududlar kesimida doimiy aholi soni, ming kishi

Mamlakatimiz aholisi sonining muntazam o'sishi hamda demografik rivojlanishda hududiy tafovutlarning kuzatilishi ushbu sohani tadqiq etish zaruratinini yanada oshirmoqda. Statistik ma'lumotlar shuni ko'rsatadiki,

Samarqand viloyati eng ko'p aholi soniga ega bo'lib, umumiy aholi sonining taxminan 12 foizini tashkil qiladi. Shuni aytish kerakki, Sirdaryo viloyati 930,8 ming kishini (2,5%) tashkil etib, eng kam aholi soniga ega viloyat sifatida ko'rildi. Aholisi soni jihatidan eng ko'p viloyat Samarqand 4297,5 ming kishi, Farg'ona viloyati 4144,7 ming kishi (11,04%) keyingi o'rnlarda esa Qashqadaryo, Andijon, Namangan hamda Toshkent shahri turganligini ko'rishimiz mumkin.

Butun jahonda hozirda ko'plab mamlakatlarida tug'ilish darajasi pasayib bormoqda. Ammo O'zbekistonda bu ko'rsatkich ko'tarilish tendensiyasiga ega. Bu Jahon Sog'liqni Saqlash Tashkiloti va xalqaro ekspertlar tomonidan ham e'tirof etildi. 2023-yilgi ma'lumotlarga ko'ra, O'zbekistonda tug'ilishlar soni 961962 nafarni tashkil etdi. Shundan qiz bolalar soni 463717,0 ming kishini, o'gil bolalar soni 498245,0 ming kishi qayd etilgan bo'lib, 1000 aholiga nisbatan tug'ulish koeffitsienti 26,4 promilleni tashkil etgan.



2-rasm. 2024-yilga ko'ra viloyatlar kesimida aholining zichlik darajasi

Yuqorida tahlil qilingan 2-rasmdagi ma'lumotlardan ko'rishimiz mumkinki, yurtimizdagи viloyatlardagi aholining yashash zichligida keskin farqlanmoqda.

Navoiy viloyati eng past zichlikka ega viloyat bo'lib, doimiy aholi soni 1075300 kishi tashkil etadi, baholanki uning yer maydoni O'zbekiston yer maydonining 24,7 foizini tashkil etadi va yurtimizdag'i eng katta viloyat hisoblanadi. Namangan viloyatining zichlik darajasi esa Toshkent viloyatidan qariyb 2 barobar yuqori bu esa aholimizning katta qismi Farg'ona vodiysida istiqomat qilishining yana bir isbotidir. Aslida, zichlik darajasi bo'yicha eng katta darajaga ega 3 viloyatning barchasi Farg'ona vodiysida joylashgan.

Statistik tahlilga ko'ra, yurtimizda 2023- yilda 172757 mingta o'lim qayd etilgan bo'lib, mos ravishda 1000 aholiga nisbatadan o'lim koeffitsiyenti 4,7 promilleni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 0,1 promillega tushgan (2022-yilda 4,8 promille bo'lган). Vafot etganlarning ko'p qismi Samarqand (19388 ming kishi) va Farg'ona (18658 ming kishi) viloyatlariga to'g'ri keldi. Sirdaryo va Navoiy viloyatlarida o'lim soni eng kam bo'lib, Xorazm viloyati ko'rsatgichidan (9004) taxminan 2 barobarga kamligi qayt etildi. Aytish joizki, bu ko'rsatgichning pasayishi odamlarning o'rtacha umr ko'rish davomiyligi uzayganligini bildiradi. Demografik holatda 2023-yil jami vafot etganlarning 45 foizi ayollar o'limiga (77751 ming ayollar), 55 foizi (95006 ming erkaklar) erkaklar o'limiga to'g'ri kelgan.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Xulosa qilib aytganda: O'zbekiston aholisi demografik jihatdan o'sishda davom etmoqda. Ushbu jarayonni mamlakat iqtisodiy rivojlanishi bilan uyg'unlashtirish, aholi farovonligini oshirish va resurslardan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi. So'nggi yillarda yurtimiz fuqarolari xorijga chiqib ishlashi ortib bormoqda. Natijada mamlakatga kelib tushadigan valyuta tushumi ortishi yoki oilalar daromadining oshishiga xizmat qilishi mumkin, biroq shu bilan birga malakali ishchi kuchining chiqib ketishi, ya'ni "miyada oqimi" muammosi yuzaga kelmoqda hamda oilaviy ajralishlar, ijtimoiy muammolar ko'paymoqda. Bu kamchiliklarni quyidagi takliflar orqali bartaraf etish tavsiya etiladi:

- Aholining mehnatga layoqatli qismini ish bilan ta'minlash uchun yangi ish o'rnlari yaratish, tadbirkorlikni rivojlantirish va investitsiyalarni jalb qilish , ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish orqali bandlik darajasini oshirish zarur;
- Tug'ilish ko'rsatkichlarining yuqoriligi mamlakat mehnat bozoriga ijobjiy ta'sir qilishi uchun yangi ish o'rnlari yaratish va iqtisodiy imkoniyatlarni kengaytirish zarur;
- Aholining haddan tashqari zinchashib ketishini oldini olish maqsadida, viloyatlar va qishloq hududlarida ishlab chiqarish korxonalari, texnoparklar va xizmat ko'rsatish sohalarini rivojlantirish kerak;

To‘g‘ri demografik siyosat yuritish orqali O‘zbekiston iqtisodiyotini yanada barqaror va raqobatbardosh qila olamiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining "2025-yilda aholi bandligini ta'minlash va kambag‘allikni qisqartirish chora-tadbirlari to‘g‘risida" PQ-12-son qarori . <https://www.lex.uz/uz/docs/-7327821>
2. Tojiyeva Z.N. O‘zbekiston Respublikasida demografik jarayonlar va ularning hududiy xususiyatlari. Doktorlik dissertatsiyasi.- T., 2017. V. 17.
3. Qodirova K.F. O‘zbekiston Respublikasi demografiyasi rivojlanish tarixi // Pedagoglar ilmiy jurnali. – 2023. – №1. – B. 45–52.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. <https://stat.uz/uz>